

**INTEGRATSION O‘QUV MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH
METODIKASI**

**МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ КОМПЛЕКСНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАНЯТИЙ
METHODOLOGY OF ORGANIZING INTEGRATED EDUCATIONAL
LESSONS**

Matematika va informatika kafedrasida katta o‘qituvchisi: **Axmedov Shavkatbek
Baltabayevich**

Andijon davlat pedagogika instituti
Tabiiy fanlar fakulteti Kimyo yo‘nalishi

201-guruh talabasi:

Tohirjonova Latofatoy Jahongir qizi maqolasi

Annotatsiya: Ushbu maqola integratsion yondashuv, ta’lim jarayonida turli fanlararo aloqalarni uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning bilim, konikma va malakalarini yaxlit holda shakllantirishga qaratilgan. Maqolada integratsion mashg‘ulotlarning mohiyati, ularni rejalashtirish va samarali tashkil etishning asosiy bosqichlari batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: modernizatsiya, tendensiya, raqobatbardosh, kompetensiya, integratsion yondashuv, AKT, resuslar, illyustratsiya, vizualizatsiya, didaktik.

Аннотация: Данная статья направлена на формирование знаний, умений и навыков учащихся в целом посредством интегративного подхода, гармонизации различных межпредметных связей в образовательном процессе. В статье подробно раскрыта сущность интегрированного обучения, основные этапы их планирования и эффективной организации.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 12. December 2024

Ключевые слова: модернизация, тренд, конкурентоспособность, компетентность, комплексный подход, ИКТ, ресурсы, иллюстрация, визуализация, дидактика.

Abstract: This article is aimed at forming the knowledge, skills and skills of students as a whole through an integrative approach, harmonizing various interdisciplinary connections in the educational process. The article describes in detail the essence of integrated training, the main stages of their planning and effective organization.

Key words: modernization, trend, competitiveness, competence, integrated approach, ICT, resources, illustration, visualization, didactic.

Kirish: Dunyo ta'lim tizimining xalqarolashuvi jarayonlari milliy ta'lim tizimi oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'ymoqda. Jumladan, hozirgi kunda maktablarning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda dunyoga yaxlit, o'zaro aloqador bo'lgan birlik sifatida qarash, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko'ra va tushuna bilishni shakllantirishdan iborat. Unda ilg'or xorijiy tajribalarni integratsiyalash orqali jahon innovatsion-integrativ ta'lim muhitini kengaytirish, akmeologik yondashuv asosida innovatsion-kasbiy o'sish dinamikasini maqbullashtirish mexanizmini takomillashtirish muhim dolzarblik kasb etadi. O'zbekistondagi yangi ta'lim tizimi – bu mamlakatda ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, global talab va texnologik rivojlanish tendensiyalariga moslashtirishga qaratilgan islohotlar majmuasidir. Ushbu tizim milliy ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni va raqobatbardosh avlodni tarbiyalashni maqsad qilgan. Umuman olganda, bugungi ta'lim tizimi fanlarning bir-biriga uzviy aloqadorlikda ekanligini ko'rsatmoqda. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan bunday o'zgarishlar esa fanlararo integratsiyani mazmun va mohiyatan o'rganish va tadqiq etishni taqazo etadi. Fanlararo aloqaning asosiy tamoyili – boshlang'ich ta'lim mazmunining yo'nalishlarini aniqlash va umuman o'quv fanlarining aloqasi va to'liqligini ta'minlashdan iborat. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim dasturini ishlab chiqishda asosiy

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 12. December 2024

o‘rinni integratsiya egallaydi, ya’ni yuqori o‘quv natijalariga erishishda alohida fanlarni o‘qitish emas, balki fanlararo aloqalarni o‘rnatish muhimdir.¹

Bolgariyalik olimlar tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘z ichiga olgan, 10-12 yoshlik bolalarga mo‘ljallangan integratsiyalangan kurs yaratishdi. Shunday qilib, o‘qish, yozish va og‘zaki nutq “Til san’ati”ga, tarix, geografiya, fuqaroshunoslik, jamiyatshunoslikka, fizika, kimyo, biologiya, astronomiya, tabiatshunoslik va shu kabilarga birlashtirildi. Integratsiyaning bunday usulidan to‘liqsiz va to‘liq o‘rta maktablarda qo‘llaniladi. AQSHdagi o‘rta maktablarning yuqori sinflarda fizika, kimyo, geografiya, geologiya, kristallografiya, tuproqshunoslik va shu kabilarning o‘z ichiga oluvchi “Erni o‘rganish” fani kiritilgan. Chexiya, Slovakiyada ham shunday umumlashtiruvchi integratsiyalangan “fuqaro tarbiyasi” deb nomlangan. Shunday qilib, bir qator mamlakatlar tajribalari ko‘rsatishicha integratsiyalangan kurslar qulay shakl bo‘lib qoldi.

Boshlang‘ich maktab ta’lim va tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang‘ich ta’limni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar paydo bo‘ldi: darsni ikki fan o‘qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uning bir o‘qituvchi tomonidan o‘tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang‘ich ta’lim mazmunini tubdan o‘zgartirishgacha. Ana shu fikr-mulohazalar natijasi o‘laroq, boshlang‘ich ta’lim tizimiga bir qator o‘zgartirishlar kiritildi. Jumladan, 1-2-sinflarda o‘qitiladigan ona tili hamda o‘qish fanlari umumlashtirilgan holda 2021-2022-o‘quv yili uchun “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi ishlab chiqildi. Ushbu fanlarni birlashtirishdan ko‘zlangan bosh maqsadlardan biri o‘quvchilarni hayotiy nutqiy vaziyatlarga tayyorlashdir. Masalan, darslikdagi “Navbatda turishni bilasizmi?” mavzusida navbatda turish madaniyati, bu vaziyatda ishlatiladigan til birliklari - murojaat shakllari yuzasidan ta’lim beriladi. Shuningdek, dars jarayonida fanlarning bir-biriga integratsiyalashuv imkoniyatlarining yuqori baholanishi natijasida boshlang‘ich sinf dasturiga “Tabiiy fan” darsligi kiritildi. Boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish, shu bilan birga, bolalarning integrativ asosda tahsil olishlarining fan tizimida muhim ahamiyat kasb etishini ko‘zda tutgan holda

¹ Azimova I. va boshq. Ona tili va o‘qish savodxonligi //1-sinf uchun darslik. - Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.

Respublika ta'lim markazi va KHISO olimpiada maktabi hamkorligida boshlang'ich sinf o'quvchi va o'qituvchilari uchun “Bilag'on” integratsion olimpiadasi o'tkazib kelinmoqda.²

Yangi ta'lim tizimining asosiy maqsadlari: O'quvchilarni amaliy va hayotiy bilimlar bilan ta'minlash. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish. Global ta'lim standartlariga mos kadrlar tayyorlash. Yaxlit va kompetensiyaga asoslangan ta'lim modelini shakllantirish. Milliy va ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish.

Yangi ta'lim tizimining asosiy yo'nalishlari:

1. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim. Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan birga, ularni real hayotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.
2. Integratsion yondashuv. Fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish va ta'lim mazmunini hayotiy muammolarni hal qilishga yo'naltirish.
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish (AKT). Elektron ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim va raqamli texnologiyalarni keng qo'llash.
4. Xalqaro standartlarga mos kelish.

Integratsiya yetarlicha namoyon bo'la olgan, turli xarakterli mazmunning singdirilishi natijasida yangi sifatli holatga o'tishda asosiy omil bo'lib yuzaga chiqqan oluvchi faktor hisoblanadi. Integratsiya chuqur, noan'anaviy ta'lim bilan tavsiflanadigan oluvchi, turfa xarakterdagi katta hajmli o'quv materialining uyg'unlashuvini o'zida namoyon etadi.

Integratsion ta'lim – bu ta'lim jarayonida turli fanlar, mavzular yoki yo'nalishlarni birlashtirib, o'quvchilarga yaxlit bilim, ko'nikma va malakalar shakllantirishga yo'naltirilgan yondashuvdir. Ushbu ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarning turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglashiga, olingan bilimlarni real hayotda qo'llashga va kompleks muammolarni hal qilishga yordam berishdir.

² Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -Toshkent: TDPU, 2003.

Gorskaya G.I., Churakova R.G. Maktabda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish. //To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashridan tarjima - Toshkent: “O'qituvchi”, 1990.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 12. December 2024

Integratsion o‘quv mashg‘ulotlari – turli fanlarni birlashtirib, o‘quvchilarni yaxlit bilimlar majmuasi bilan tanishtirishga qaratilgan mashg‘ulotlardir. Bu metodika o‘quv jarayonida muammoli, ijodiy va mantiqiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Quyida bunday mashg‘ulotlarni tashkil etish bosqichlari va metodikasi keltiriladi:

1. Darsning maqsadi va rejasini aniqlash. Integratsiya uchun tanlangan mavzular o‘zaro bog‘liq bo‘lishi kerak. Darsning maqsadi aniqlanadi: qaysi bilimlar, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish maqsad qilingan. Har bir fan doirasida qaysi aspektlarni birlashtirish mumkinligini belgilash.

2. Fanlararo integratsiya modellari

Mazmuniy integratsiya: Bir mavzuni turli fanlardan o‘rgatish. Masalan, “Tabiatni muhofaza qilish” mavzusi geografiya, biologiya va ekologiya fanlari orqali yoritilishi mumkin.

Metodik integratsiya: O‘quv usullari va yondashuvlarni birlashtirish.

Tadqiqotli integratsiya: O‘quvchilarning muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga yo‘naltirilishi.

3. Mashg‘ulotni loyihalash

Resurslarni tanlash: Har bir fan uchun zarur materiallar va qo‘shimcha resurslarni aniqlash.

Metodlar tanlash: Guruhda ishlash, munozara, amaliy mashg‘ulotlar, muammoli ta’lim, klaster va grafik modellarni qo‘llash.

Vazifalar tayyorlash: Fanlararo bog‘liqlikni ko‘rsatadigan topshiriqlarni ishlab chiqish.

4. Darsning tuzilmasi

Kirish qismi: Integratsiya qilinayotgan mavzu yoki muammoni taqdim qilish. O‘quvchilarga asosiy maqsad tushuntiriladi.³

³ www.cyberleninka.ru

Asosiy qism: Turli fanlardan bilimlarni kiritish. Ushbu qismda bir fan doirasidagi bilimlar boshqa fan doirasidagi bilimlar bilan uygʻunlashtiriladi.

Amaliy qism: Integratsiya orqali olingan bilimlarni qoʻllash uchun vazifalarni bajarish.

Xulosa: Oʻquvchilar bilan birgalikda yakuniy natijalar tahlil qilinadi va mavzu boʻyicha xulosalar chiqariladi.

5. Texnologiyalarni qoʻllash

AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) vositalari, masalan, multimediya taqdimotlari yoki simulyatsiya dasturlari. Ilyustratsiya va vizualizatsiya usullari, masalan, klaster yoki mind-map texnologiyalari. Didaktik oʻyinlar, loyihalar va kvest texnologiyalari.

6. Integratsiya samaradorligini baholash

Testlar yoki kuzatishlar yordamida oʻquvchilarning bilimlari tekshiriladi. Oʻquvchilarning integratsion darsga munosabati va ishtirok darajasini tahlil qilish.

7. Afzalliklari

Oʻquvchilarni tanqidiy fikrlashga oʻrgatadi. Bilimlarni qoʻllashda yaxlit yondashuvni rivojlantiradi. Fanlararo bogʻliqlikni anglashga yordam beradi.

Integratsion darslarni toʻgʻri rejalashtirish va tashkil etish, oʻquvchilarning bilimlarini mustahkamlash va ularni real hayotda qoʻllash koʻnikmalarini oshirishga imkon beradi.

Integratsiyaning u yoki bu darajasini taʼlim jarayonida qoʻllash natijasida: oʻquvchining vaqti va kuchi tejaladi, uning bilish imkoniyatlari kengayadi. mavzulararo integratsiya asosida oʻquv-biluv jarayoni natijalarini istiqbollik qilish mexanizmlari yaratiladi. integratsiyalashtirilgan taʼlim jarayonini boshqaradigan oʻqituvchilarini tayyorlash va malakasini oshirishni yoʻlga qoʻyish uchun huquqiy metodik imkoniyatlar yaratiladi. oʻquv-biluv jarayonini integral dasturlar asosida tashkil etish sohasidagi xalqaro tajribalardan keng foydalanish uchun qulay imkoniyatlar tugʻiladi.

Ta'lim jarayonida o'quv fanlararo integratsiyani ta'minlash o'qitishda interfaol metodlar va ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkonini beradi. Ta'lim jarayonini integratsiyalashni ta'minlash bir qator pedagogik imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Fanlarning, mavzularning va tushunchalarning o'zaro aloqasi bir-birini to'ldirishiga erishiladi.

Integratsion dars odatdagi darslardan: Aniqligi, ixchamligi, o'quv materialining keng ko'lami. Darsning har bir bosqichida integratsiyalanayotgan o'quv fanlarining har taraflama mantiqiy shartlanganligi. Berilayotgan o'quv materialidagi keng ko'lamlı axborotga egaligi bilan ajralib turadi.

To'g'ri, integratsion dars faqatgina fanlarning yoki mavzularning uyg'unlashtirilishi bilan samarali bo'lib qolmaydi. Chunki ushbu mujassam darsning samaradorligga erishish uchun maqsadlarni aniq qo'yish, darsni tashkil etishda interfaol metodlarni qo'llash muhim sanaladi. Bu usullar orqali uyg'unlashgan dars maqsadiga erishiladi va o'quvchilarning bilim olish jarayoni osonlashadi. Integratsion darsda interfaol metodlarni qo'llash quyidagi sifatlar va malakalarni shakllantiradi: O'qituvchi va o'quvchining butun dars davomida birgalikda faoliyat yuritishi; Dars jarayonda har bir o'quvchining faol ishtirok etishi; Sinfda iliq-ruhiy muhit yaratish; Beriladigan o'quv fani bo'yicha o'quv materiallarini ongli o'zlashtirish; Shaxsning o'z qobiliyatlarini namoyon qilish va o'zining ichki imkoniyatlaridan foydalana bilish; Guruh bo'lib faoliyat yuritish va shu guruhda yoqimli psixologik muhit yaratish; Muammolarni yechish jarayonida mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlay olish; O'zgarlar fikriga hurmat qilish va fikrlarni xolis baholashga o'rganish; O'zaro yordam hissini shakllantirish; Muammoni yechish jarayonida har bir o'quvchi o'zi bilgan, esga tushirgan, o'ylagan ma'lumotlariga tayanish; Munozara jarayonida birgalikda o'qish muhokama qilish, e'tiroz bildirish; O'zaro nazorat va guruhlararo nazoratni yo'lga qo'yish kabilar.

Xulosa: Maqolada integratsion o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilindi. Integratsion yondashuv o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, fanlararo aloqalarni rivojlantirish va ularda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi ta'kidlandi. Samarali integratsion mashg'ulotlarni tashkil etish uchun puxta rejalashtirish, turli fanlar o'rtasida mantiqiy bog'liqlikni ta'minlash va innovatsion usullardan foydalanish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Ushbu metodikaning ta'lim jarayoniga

joriy etilishi ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi hamda o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi. Maqolada ilgari surilgan tavsiyalar pedagogik amaliyotda keng qo'llanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I. va boshq. Ona tili va o'qish savodxonligi //1-sinf uchun darslik. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. - 104 b.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -Toshkent: TDPU, 2003. -175 b.
3. Gorskaya G.I., Churakova R.G. Maktabda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish. //To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashridan tarjima - Toshkent: “O'qituvchi”, 1990. -216 b.
4. Mamedov Sh.M. Boshlang'ich ta'lim sifatini rivojlanishda fanlararo integratsiya yaratishning o'rni (Ozarbayjon Respublikasi): “European science №1”. -93bet
5. Yakibova D.Sh. Boshlan'ich ta'limda integratsiya - intellektual taraqqiyot omili sifatida. –“Maktab ta'limi”, Termiz davlat universiteti, 2016. - 98b.
6. Кукушин Б.С., Болдырева-Вараксина А.В. Педагогика начального образования. / Под общ. ред. Б.С.Кукушина. - М.: ИКС «МарТ»; Ростов н/Д: Издателский центр «МарТ», 2005.
7. www.cyberleninka.ru

**Research Science and
Innovation House**